

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MAMLAQATI DILASI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

TONG YULDUZ

GAFUR GULOM
NOMIDAGI MADANIYAT VA ISTIROHAT
BOG'I

2009-yil
12-oktabr
N.41
(66738)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929 yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

Zo'r - r
bezgram
bo'ldi!

4-5 betda

Tong yulduzi
biz sen bilan!



O'tgan oyning so'nggi haftasida Toshkent Davlat texnika universitetining mexanika – mashinasozlik fakulteti mehmonlar bilan gavjum bo'ldi. Bu yerda yurtimizning turli go'shalarida ta'lim olayotgan umumta'lim maktabalarining o'quvchilari o'rtasida an'anaviy «Ijodkor ixtirochi bolalar» respublika ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Tanlovda o'quvchilar elektronika, kimyo, neft va gaz sanoati, sanoat va agrosanoat, transport va harbiy texnika hamda tabiatni himoya qilish yo'naliishi bo'yicha o'zlarini yaratgan ixtiro namunalarini bilan ishtirok etdilar.

Shunisi diqqatga sazovorki, tanlov ishtirokchilari o'z modellarini Xalq ta'limi vazirligi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «Kamalak» bolalar tashkiloti, Davlat patent idorasi hamda Respublika o'quvchilar texnik-ijodiyot markazi vakillaridan tuzilgan nufuzli hakamlar oldida munosib himoya qilishlari ham kerak bo'ldi.

Samarqandlik Bahrom Qudratullayev yangi muzyorar kemasining loyihasini havola etganida, ko'pchilik hayratga tushdi. Suvga yarim cho'kkani holda harakatlanuvchi bu kemaning ustiga o'rnatilgan o'ta chidamli arralar har qanday qalinlikdagi muzlarni kesishga mo'ljallangan. U muz ostidagi «Qora oltin»ni qayta ishslash uchun quruqlikka yetkazib berishni ham uddalaydi.

Namanganlik Ulug'bek Sobirov raketa tashuvchi avtomobil modelini namoyish etganida, avvaliga unchalik e'tibor qilmadik. Savol-javoblar jarayonida bu bolakay hammamizni stol atrofiga «mix»lab qo'ydi. Uning mashinasi botqoq yoki qalin qumliklarda ham,

hattoki suvda ham xuddi tekis yo'lida ketayotgandek harakatlandi. Bu yangilikdan ustozlar ham hayratlarini yashirolmadilar.

Buxorolik Qudrat Nurullayev va qashqadaryolik Adham Hamroyevlar bir muammoni yechimini topish uchun ikki xildagi loyiha bilan kelgan bo'lsalar-da, maqsadlari bitta: shamol energiyasini elektr energiyasiga aylantirish.

Mazkur tanlovda respublikamizning turli viloyatlaridan kelgan 70 nafar o'quvchilar


ishtirok etdilar. Suhbatlar asnosida ma'lum bo'lishicha, ularning ko'pchiligi joylardagi texnik-ijodiyot markazlarining a'zolari. Hozirgi paytda bunday markazlar soni 140 dan ortiq bo'lib, ularda 108651 nafar o'quvchi 66 yo'naliishdagi to'garaklarda shug'ullanib kelishmoqda.

Respublika o'quvchilar texnik ijodiyot markazi rahbari Xadicha opa Zokirovaning ta'kidlashicha, tanlov dasturi yildan-yilga takomillashib bormoqda. Yo'naliishlar soni ortgani sari ishtirokchilar safi ham kengayib bormoqda. Tanlov ishtirokchilarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ularni shaharni diqqatga sazovor joylari bilan tanishtirish, turli xil viktorinalar o'tkazish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Va niyoyat, ikki kunlik tanlov niyoyasiga yetdi. Bahs va munozaralardan so'ng jamoa hisobida birinchi o'rinni qo'lga kiritdilar. Ammo bir narsani xushnudlik bilan ta'kidlash lozimki, yoshlarmizda yangilik yaratishga qiziqish hissi ancha baland. Ular ko'p narsalarni kashf etishga bel bog'laganlar. Tanlovdan qaytar ekanman, beixtiyor bir fikr xayolimni band etdi. Yurtimizda iqtidorli

bolajonlar ko'p ekan, ularni ta'tilda birlashtirsak, qanday bo'larkin?! Buning uchun ular yozgi biror oromgohga jalb etilsa, bir-biri bilan muloqotda bo'lishsa, fikr almashishsa, foydadan xoli bo'lmasedi.

Qadrli gazetxon! Tengdoshlarining ixtiolarini bilan tanishdingiz. Sizda ham ularga havas uyg'ongan bo'lsa, ajab emas. Ukangizga varrak yasab bering. Uni quvongani-chi! Keyin esa poyezd, samolyot, raketa... Biz sizga ishonamiz! Keyingi tanlovda uchrashib qolsak ham, ajabmas.

Yusuf ABDULLAYEV



Mashhur sarguzasht asarlar muallifi Agata Kristining ovozi yozilgan kassetalar topildi. Magnit yozuvlarining umumiyyajmi 13 soatdan oshib ketadi. «Nyu-York tayms» gazetasida e'lon qilingan maqolada bayon etilishicha, ularda Agata Kristi o'z asarlarida adabiy qahramoni izquvar Erkyul Puaroni «Rostmana xudbin» sifatida ta'riflaydi.

Dunyoga mashhur yozuvchi, Nobel mukofoti laureati, o'zbek o'quvchilariga o'zining «Tanholidka yuz yil» asari bilan yaxshi tanish Gabriel Garsia Marques bundan keyin kitob yozmoqchi emas. Bu degani, yozuvchining kitobi nashr etilmaydi degani emas.

Mashhur adibning hali e'lon qilinmagan ko'pgina kitoblari bor.

Dunyoga taniqli rus adibi Lev Tolstoyning internetda maxsus portalini tashkil etildi. Uni Rossiya Davlat kutubxonasi va «Yasnaya Polyana» qo'rg'on-muzeyi birgalikda yaratishdi.

1 dan 100 gacha bo'lgan barcha sonlarni bir-biriga qo'shib chiqilsa, 5050 soni hosil bo'ladi.

* * *

Agarda 111 111 111 sonlarini o'ziga ko'paytirsak, 12345 678 987 654 321 hosil bo'ladi. (Qizig'i shundaki, yig'indidagi barcha sonlar galma-gal ko'payadi va yana shu tartibda kamayadi).

* * *

Bir milliard sekund taxminan 37 yilga tengdir.

* * *

Issiq suv sovuq suvdan og'irroqdir.


ZUMRADGA AYLANIB QOLSAM...

Orangizda yaxshi qizlar ko'p-da! Masalan, tengdoshingiz Diyora Abdurasulovaning ertak qahramoni Zumradga o'xshagini kelar ekan. O'zi Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani joylashgan 14-maktabning 3-«B» sinfidagi eng a'lochi, odobli qizlardan biri. Diyora ertak kitoblarni o'qishga shunchalik kirishib ketar ekanki, hatto qahramonlar bilan suhbatlashganday bo'lar emish. Balki ana shunday suhbatlarning birida Zumrad yaxshi qiz bo'lishni o'rgatgandir?! Axir ertaklar-yaxshilikka yetaklar, deb bejiz aytilmagan-ku.

*Muhayyo TO'LAGANOVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani*

(Boshi o'tgan sonlarda)

KUNLARDAN BIR KUN...



Kunlardan bir kun mo'jiza ro'y berdi. Kutilmaga, o'ng ko'zim «yarq» etib, o'z-o'zidan ochilib ketdi! Aqlim soat mexanizmidek aniq-tiniq ishlab, yozganlarim (bu paytda mashqlarim yuztadan oshib ketgan edi)

nimaga yarashini bir necha soniya

ichida bilib oldim!

Men barcha she'r daftarlarimni birma-bir varaqlab, har bir mashqimni ovoz chiqarib o'qidim, o'qib bo'lgach, o'zimga: «Xo'sh, nima bo'libdi shunga?» deb savol bera boshladim. Shu ayovsiz savolimga «Hech nima!» degan javobni olgan mashqlarimni bir tomonga, savolga mardona «ko'krak kerib» tura olgan she'rлarimni ikkinchi tomonga qo'ydim. «Hech nima»ga arzigan (to'g'rirog'i, arzimagan) bir quchoq mashqlarimni ko'zimni chirt yumib, yoqib yubordim. Keyinchalik yana bir necha marta shu tarzda yuzlab she'rлarim bilan «xayrashdim». Qo'limda 20 tagina she'r qoldi, xolos. Ularni olib qolib to'g'ri

qilganmanmi, yo yo'qmi, bilmayman. Hozir o'sha – 13-14 yoshlarimda yozgan she'rлarimdan birini e'tiboringizga havola etaman.

KICHKINTOY CHAVANDOZ

*Jajigina Ganisher
Chavandoz bo'laman der.
Poygalarida qatnashib,
Sovrintar olaman der.
Unga toying yo'q-ku deb,
Maslahat solgunimcha,
Ukam der: — Ot bo'lasiz,
Samantoy olgunimcha!*



LONDONLIK BAQALOQLAR

Britaniyalik olimlarning fikriga ko'ra, o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarning aksariyat qismi ulg'ayganda, ortiqcha vazndan aziyat chekar ekanlar. Londondagi kollejlardan birida o'tkazilgan tadqiqotda 6500 nafar bola qatnashgan. Tekshirish jarayonida 10 yoshli o'quvchilar orasida darslarni yaxshi o'zlashtirmaydigan, loqayd bolalar semirishga moyil bo'lishi aniqlandi. Bu holat qiz bolalarda ko'proq kuzatilgan.

Olimlar 1970-yilda tug'ilgan bolalarning 10 yoshida bo'yvi va vaznini o'lchab olishgan. 20 yildan so'ng bu tekshiruvlar takrorlanganda, yoshlida tirishqoq bo'lgan o'quvchilarga nisbatan dangasa va o'ziga ishonmaydigan bolalarning vazni me'yordan ortiq ekanligi yana bir karra isbotlangan. Hozirda londonlik o'quvchilar tengdoshlari baqaloq deb kalaka qilmasliklari uchun kamroq gamburger iste'mol qilishga harakat qilyaptilar.

Aziz o'quvchilar! Bugungi sahifamizda dunyo olimlarining salomatlik haqidagi fikrlari bilan tanishasiz. Bolaligidan o'z sog'lig'iga befarq bo'lmagan bola, ulg'ayganda jismonan sog'lon bo'lishi tadqiqotlarda isbotlangan.



Kanalik tadqiqotchilarning aniqlashicha, shirinlikni ko'p iste'mol qilish xotiraning pasayishiga olib keladi. Kundalik iste'moldagi oziq-ovqat tarkibida fruktoza me'yordan oshib ketsa, xotira susayib, natijada inson xotira pasayishi kasalligiga chalinadi.

XOTIRASINI YO'QOTGAN KALAMUSH

Kemiruvchilarda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, bir kunda 60 foiz fruktoza iste'mol qilgan kalamush oz fursat ichida muvozanatini yo'qotgan. Natijada kalamushlar o'zlarini kiradigan teshiklarni juda qynalib topishlari kuzatilgan.

Xuddi shu holat ko'p shirinlik iste'mol qiluvchi insonlarda ham ro'y berishi aniqlandi. Bunday insonlar bir marotaba borgan joylarini qayta topib bora olmasliklari isbotlandi. Keksalikda esa bu holat qariyalarda xotiraning umuman yo'qolishiga olib kelar ekan.

Yangiqo'rg'on tumanidagi Birlashgan qishloq aholisining

MA'NAVİYAT XIYOBONI

710 nafar farzandiga ta'lim-tarbiya berayotgan 14-umumta'lim maktabi o'qituvchilari yangi bir tashabbusga qo'lurdilar. Maktabning kiraverishida «Ma'naviyat xiyoboni» barpo etildi. Bu yerga «Davlat ramzlar», «O'zbekiston Vatanim manim», «Mash'allarimiz» va 21 nafar olamdan o'tgan sobiq pedagoglar hayotini aks ettiruvchi «Marhum ustozlar» panolari o'natildi.

— Xiyobonni tashkil etishimizga, — deydi maktab direktori Inomjon



Amerikalik olimlar ko'k choyma shakar va askorbin kislotasi qo'shib iste'mol qilish inson organizmiga foyda ekanligini aniqlashgan. Shuning uchun ham shifokorlar masla-

AMERIKADA ICHILADIGAN CHOY

hatiga binoan, amerikaliklar limonli ko'k choyni ko'p ichisharkan. Mutaxassislar choyma qo'shilgan askorbin kislotasi yurak xastaligi, saraton, qandli diabet va boshqa kasalliklarga davo bo'lishini ta'kidlashadi. Shu sababli, tadqiqotchilar ko'k choyma limon suvini qo'shib ichishni maslahat beradilar. Shunday qilinganda, S vitamini qonga uch barobar ko'proq so'rilar ekan.

REKORD O'ZGARTIRILMADI

Samara Sog'liqni Saqlash Departamentining xabar berishicha, bo'y 62 santimet, og'irligi 6 kilogramm-u 750 gramm bo'lgan chaqaloq dunyoga keldi. Polvon chaqaloq oilada uchinchi farzand ekan. Shifokorlarning gaplariga qaraganda, hali shu kungacha Samarada bunday og'ir vaznli bola tug'ilman. Afsuski, bu hodisa Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilmaydi. Negaki, 1955-yil Italiyada tug'ilgan 10,2 kilogramm vaznli chaqaloq hozirgi kunga qadar ushbu rekordning o'zgarmasligiga sabab bo'imoda.



Internet xabarlari asosida tayyorlandi

Maqsudov, -yurtboshimiz I.Karimovning

«Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarlari turtki bo'ldi. Yoshlarimiz ma'naviyatini boyitishda bu xiyobonning o'rni beqiyos, deb o'ylayman. Tuman xalq ta'limi bo'limi tashabbusimizni qo'llab-quvvatladi. Seminar tariqasida o'tgan anjumanda barcha maktablarda shunday xiyobonlar tashkil etish foydalii ekanligi ta'kidlandi.

Kamola NOSIROVA,
Namangan viloyati

SHE'R QANDAY YOZIPADI?

She'r ham, she'r yozish jarayoni ham, ilhom deb atalgan ne'mat ham aslida qiyosi yo'q, sirli-sehrli jarayon. Masalan, o'nta shoirdan she'r qanday yoziladi, deb so'rasang, o'n xil javob eshitasan yoki o'nta shoiring ona mavzusidagi o'nta she'rini topib o'qisang, ular o'n xil yozilganini ko'rasan. Bu hol she'rming o'ziga xos hodisa, o'ziga xos yangilik safatida dunyoga kelishidan darak beradi. She'r yozishni mashq qilish uchun, avvalo, she'rning o'zi nima ekanini bilib olish, uning yozilish texnikasini puxta'egallash zarur bo'ladi. Adabiyotshunos olimlarimiz she'rga: «Fikrning his tuyg'uga qorishiq ifodasi, hayajonli she'riy nutq, ma'lum ohangga ega badiiy asar», deb ta'rif berishgan. «She'r so'zi arabcha bo'lib,

o'zbekchada shuur, sezgi degan ma'noni ifodalaydi.

Bu fikrlardan biz boshlovchi ijodkor sifatida quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin.

Birinchidan, she'rda, albatta, fikr va tuyg'u bo'lishi va u o'quvchini hayajonga solishi kerak. Ikkinchidan, qoidasiga ko'ra she'rda so'zlar ma'lum bir tartib, ohangga ega bo'lishi lozim. Uchinchidan, mazmun va shaklni bir butun holda, badiiy tarzda ifoda etish shart. «Badiiy» degani nimaligini bilasanmi? Badiiy degani, sodda qilib aysak, voqeani, qalamga olinayotgan fikri bayon qilish emas, timsol (obraz) orqali ifodalash bo'ladi. Kel, shu fikrimni bir she'r misolida tushuntirib beray. Masalan, mart oyida goh yomg'ir

yog'adi, goh izg'irin bo'ladi, qorlar erib ketadi, daraxtlar kurtak chiqaradi, degan fikri badiiy tarzda shunday yozish mumkin:

Goh izg'irin, goh yomg'ir,
Goh ko'kda kular ostob.
Soya joylarga qochar
Qorlar bera olmay tob.
Daraxtdagi kurtakcha
O'zin ulg'aygan bilib,
Yashil tilin ko'rsatar
Qishni kalaka qilib.

E'tibor bergen bo'lsang, bu jajji she'rda (she'r V.Orlovdan) manzara, jonlantirish, qiyoslash, hatto humor bor. Mana shu holatlar she'rda badiiylikni tashkil etgan.

She'r qanday yoziladi, degan savolga javob berishdan oldin, kimlar she'r yoza olishi mumkin, degan savolga javob bersak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Abdurahmon AKBAR

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING



Test savollari

1. Adabiyot nima?

A) insonning orzu-xayoli, umid va armonlari, odam va olam to'g'risidagi tushunchalarini badiiy so'z yordamida ifoda etish;

B) badiiy asardagi rang-baranglikni ko'rish;

D) tarix to'g'risidagi hikoyalarni o'rganish;

E) odamlar orzulariga hayotda yetisha olmasa ham xayolda yetishish.

2. Adabiyot qanday turlardan iborat?

A) roman, she'riyat, doston;

B) she'riyat, nasr, dramaturgiya;

D) doston, hikoya, qissa;

E) nasr, ruboiy, to'rtlik.

3. Ota-bobolarimizning qadim-qadimdan ishlatib kelgan so'zlari nima?

A) ibora;

B) topishmoq;

D) maqol;

E) hikmat.

4. Magollarda fikr qanday ifodalanadi?

A) batafsil, mukammal;

B) dalil va isbot bilan;

D) keng va aniq;

E) aniq va lo'nda.

5. «Folklor» atamasi qanday ma'noni anglatadi?

A) xalq bilimi;

B) xalq donoligi;

D) xalq donishmanqligi;

E) A, B, D.

6. O'zbek folklori turlari to'g'ri rsatilgan qatorni toping.

A) epik, lirik, dramatik, maxsus turlar;

B) og'zaki drama, maqol, matal;

D) mif, afsona, rivoyat, ertak;

E) askiya, xalq teatrлari, lof, terma.

7. Kishi tafakkuri va tasavvurini o'stirib, uni topag'on va hozirjavob bo'lishiga o'rgatuvchi janr qaysi?

A) maqol;

B) topishmoq;

D) afsona;

E) latifa.

8. Hadisshunos olim Imam al-Buxoriy qachon va qayerda tavallud topganlar?

A) 870-yil Makkada;

B) 810-yil Nishopurda;

D) 810-yil Buxoroda;

E) 870-yil Samarqandda.

MA'RIFATNING ESHIGISAN - ONG YULDUZIM, IJODKORLAR BESHIGISAN - «TONG YULDUZI»M!



SHODLIKLARGA BOY BO'LDI

Poytaxtimizdagi 104-maktab o'quvchilari Bolalar matbuoti bayramiga alohida tayyorgarlik ko'rishi. «Tong yulduzi» gazetasining sakson yilligiga bag'ishlangan plakatlar, devoriy gazetalar bayramga o'zgacha shukuh berdi.

- O'quvchilarimiz bolalar matbuoti bayrami bo'lishini eshitib, juda xursand bo'lgandilar, - deydi Sergeli tumanidagi 104-maktab o'quvituvchisi Umida Qayumova. - Bu kunni orziqib kutishdi. O'zlar she'r yozishdi, rasm chizishdi, sinflararo gazetalar chiqarishdi.

Ayniqsa, 4-«A» sinf o'quvchisi Feruza Mamatqulovning tahririyat xodimlariga bag'ishlangan she'ri, 7-sinf o'quvchilar Vohidjon Mamajonov, Islom Mamatqulov, 8-«A» sinf o'quvchisi Gulhayon Ahmatova kabilarning chizgan rasmlari-yu shiorlari ko'philikkma'mul bo'ldi.

Bugungi bayram har bir o'quvchining yodida qoladigan bo'ldi. Bolajonlarimizning quvnoq kulgulariga, shodliklarga men ham sherik bo'lganimidan behad mammunman.

Shunday bayramlar ko'payaversin. «Tong yulduzi» gazetasini hamisha porlab tursin, «Gulxan» jurnalining alangasi hech qachon so'nmasin. Qo'shaloq bayramingiz muborak bo'lsin!

Hafiza XOLMURODOVA,
Toshkent Davlat madaniyat instituti 1-bosqich talabasi



Oy bolalar, toy bolalar, gazeta-yu jurnallarga boy bolalar! Xabaringiz bor, bu yil sizning sevimli gazetangiz «Tong yulduzi» hamda qadrondon «Gulxan» jurnalningiz oz emas, ko'p emas, naq sakson yoshga to'ldi. Kuni kecha Toshkent shahridagi so'lim G'afur G'ulom nomidagi istirohat bog'ida ana shu qutlug' kunga bag'ishlangan ajoyib bayram bo'lib o'tdi.

Karnay-surnay sadolari ostida bog' tomor oshiqayotgan bolajonlarni mashhur qo'g'irchoqboz va qo'g'irchoqsoz Mansurbek Kuryazov bayramga chorladi.

«He-he-hey, bolalar-u bolalar, ochilgan gul lolalar,

«Tong yulduzi» bilan «Gulxan» jronning to'yiga xush kelibsiz-l-a-r!»

Bu yerga yig'ilgan ijodiy va jamoat tashkiloti vakillari, yuzlab maktab o'quvchilar, ota-onalar, jurnalist yozuvchilar, taniqli jamoat va davlat arboblari bolalar matbuotining oqsoq gazetasini «Tong yulduzi» hamda «Gulxan» jurnalining mustaqillik farzandlarini barkamol avlod qilib, Vatanimizning nurli kelajagini yaratuvchi bilimdon yoshlar qilib tarbiyalashga qo'shayotgan ulkan xizmatlarini alohida ta'kidlashdi. Ularning o'z hayotlarida tutgan o'mni haqida faxrlanib so'zlashdi. Xalqimizning sevimli ijodkorlari Abdulla Oripov, O'tkhir Hoshimov, Omon Matjon, Xudoyberdi To'xtaboyev, Miraziz A'zam, Tursunboy

BAYRAM BAYRAMDEK O'TDI

Adashboyev, Oydim Hojiyeva, Kavsar Turdiyeva, Orif

To'xtash, Abdurahmon Akbarlarining «Tong yulduzi» va «Gulxan» haqidagi e'tiroflari she'riyat mushoirasiga ularanib ketdi. Taniqli estrada xonandalari ijrosida yangragan o'quvchilar esa bayram fayziga fayz qo'shdi.

«Tong yulduzi» gazetasining Bosh muharriri T. Hayit, «Gulxan» jurnali Bosh muharriri O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

A.Jo'reyevlarning gazeta va jurnalning kelgusidagi rejalar haqidagi hikoyalari esa mehmونلار-u o'quvchilar tonomidan qizq'in ma'qullandi. Ijodkorlar kelgusi yilda ham ular bilan faol hamkorlik qilishga, maktob o'quvchilar esa 2010-yilda gazeta-jurnalga yuz foiz obuna bo'lishiga so'z berishdi. Shu kuni bog'da tongdan shomgacha bolalarning quvnoq ovozlar, shodon kulgulari jaranglab turdi.

Eng qizig'i tadbirdan so'ng bo'lib o'tdi. Shoir va yozuvchi bobolarining Ibrohim G'ofurov, Xurshid Do'stmuhammedov, Saydi Umirov, Shodmon Otobek, Bahodir Murodali, Boybo'ta Do'sqorayev, Mahmud Yunusovlar o'zaro kuch sinab ko'rishi. Ular kurash tushishdimi, dersiz? Yo'q, ular aql gimnastikasi sanalmish shaxmat-shashka musobaqasida bellashishdi. Musobaqaning yuqori pog'onalarini taniqli ijodkorlar Habib Temirov, Xurshid Do'stmuhammad, Saydi Umirovlar bo'lishib olishdi.

Muhabbat HAMIDOVA, «Gulxan» jurnali Bosh muharrir o'rinosari



A.Jo'reyevlarning gazeta va jurnalning kelgusidagi rejalar haqidagi hikoyalari esa mehmونلار-u o'quvchilar tonomidan qizq'in ma'qullandi. Ijodkorlar kelgusi yilda ham ular bilan faol hamkorlik qilishga, maktob o'quvchilar esa 2010-yilda gazeta-jurnalga yuz foiz obuna bo'lishiga so'z berishdi. Shu kuni bog'da tongdan shomgacha bolalarning quvnoq ovozlar, shodon kulgulari jaranglab turdi.

Eng qizig'i tadbirdan so'ng bo'lib o'tdi. Shoir va yozuvchi bobolarining Ibrohim G'ofurov, Xurshid Do'stmuhammedov, Saydi Umirov, Shodmon Otobek, Bahodir Murodali, Boybo'ta Do'sqorayev, Mahmud Yunusovlar o'zaro kuch sinab ko'rishi. Ular kurash tushishdimi, dersiz? Yo'q, ular aql gimnastikasi sanalmish shaxmat-shashka musobaqasida bellashishdi. Musobaqaning yuqori pog'onalarini taniqli ijodkorlar Habib Temirov, Xurshid Do'stmuhammad, Saydi Umirovlar bo'lishib olishdi.



Muhabbat HAMIDOVA, «Gulxan» jurnali Bosh muharrir o'rinosari



Sovg'alar egalariga topshirildi

Va'da qilganimizdek, bayramda «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi ham bo'lib o'tdi. Tahririyatning «Faxriy yorligi» hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlangan o'quvchilar quyonchiga sherik bo'lish maqsadida ularni suhbatga chorladik:

Shahnoza SHAMSIDDINOVA,
Sirdaryo viloyati, Mirzoabod
tumanidagi 1-maktabning 7-sinf
o'quvchisi:

- Sevimli nashrlarimizning «tug'ilgan kuni»da men uchun qo'shaloq bayram bo'ldi. «Tong yulduzi» gazetasini sahifasida e'lon qilingan «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovida 1-o'rinni qo'lg'a kiritib, «Faxriy yorliq» hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlardim.

Bayramning yana bir ahamiyatli jihat shunda bo'idiki, unga ko'plab taniqli bolalar shoirlari va yozuvchilarini tashrif buyurishdi, yangi she'rlaridan namunalar o'qishdi, bizga dastxatlar yozib berishdi. Ijod ahliga naqadar yuksak e'zoz-u ehtirom ko'rsatilishiha guvoh bo'lib, ularga astoydil havas qildim. Endi men ham she'rlar yozaman va albatta sevimli gazetamga yo'llayman.

Maktabimizda 800 ga yaqin o'quvchi tahsil oladi. Ularning aksariyati «Tong yulduzi»ning muxlislari. Haftaning gazeta keladigan kunini intiqliq bilan kutamiz. Bu gazetaga 2010-yil uchun obunani ham allaqachon boshlab yubordik.



Parvina OMONOVA,
Toshkent shahar, Mirzo
Ulug'bek tumanidagi 121-
maktabning 9-«A» sinf
o'quvchisi:

- «Tong yulduzi»ning bayram sonida e'lon qilingan tanlov g'oliblari ro'yxtida o'zimning ismi-sharifimni ko'rib bir quvongan bo'lsam, bugungi bayramda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanganimdan boshim ko'klarga yetdi. Boisi, sevimli gazetamiz ijodkorlari bilan tanishdim, ular bilan esdalik uchun surata tushdim. Bu gazetani harflarni endi-endi hijjalab o'qiy boshlagan damlarimdan o'qib kelaman. U murg'ak qalbinga ezzulik urug'ini sochdi, kitobga mehr uyg'otdi.

Bunday ibratlari tadbirlar, tanlovlari o'tkazib, barchamizni ezzulik bog'iga yetaklayotgan «Tong yulduzi»ga ming rahmat!



To'yga to'yona bilan deganlaridek, «Tong yulduzi» gazetasini Bosh muharriri o'rinosari Feruza JALILOVA «Tong yulduzi»m - ong yulduzim» nomli gazeta madhiyasi yozidi. Taniqli bastakor Shermat YORMATOV unga kuy bastaladi. Bolajonlarning sevimli «Bulbulcha» ashula va raqs dastasi a'zolari ushbu o'quvchini sahnada ilk bor ijro etishdi.

TAHRIRIYATDAN:

Bayram chinakam bolalar matbuoti to'yiga aylanib ketdi. To'y to'yedek bo'ldi.

Fursatdan foydalaniib, bolalar matbuoti bayramini chiroyli, maroqli qilib tashkilashtirishda yaqindan yordam bergan G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'i direktori O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Bahodir Sultonovga hamda direktor o'rinosari Komiljon Alimovga va Muzaffar Ja'farovlarga, bayramga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlangan mashhur qo'g'irchoqboz Mansurbek Kuryazovga tahririyatimiz xizmatori, shuningdek, ko'p ming sonli muxlislarimiz nomidan o'z minnatdorchilikimizni bildiramiz.

Suratlar muallifi Vitaliy MYASNIKOV



Hikoya

Bugun otchoparda katta bayram, to'g'riroq'i, ot sporti bo'yicha Xalqaro turnir. O'rindiqlar tomoshabinlar bilan liq to'la.

Orifjon taklifnomasi bo'lsa ham, mehmonlar uchun ajratilgan joyga emas, uyidan olib kelgan kichkinagini yasama kursisini bir chekkaga qo'yib, jiyani

Baxtiyor bilan o'tirdi. Uning qizi musobaqada ishtirok etadi. To'g'ri, qizidan ko'ngli to'q, lekin baribir hayajonda, chunki Nodira bunaqangi katta yig'inda hali biron marotaba ishtirok etmagan, boz ustiga, mezbon sifatida chiqadi.

Musobaqa ishtirokchilari ham maneja saf tortishdi. Orifjon tanidi, Nodiraning tagida o'sha tulpor. Bundan ikki yil ilgari xuddi shu yerda, mashq paytida o'jar ot oyoqlarini yuqori ko'tarib, uni yiqitmoqchidek har tomonga o'zini urib, cho'kkalab olar, uloqtirib yubormoqchi bo'lar, lekin Nodira xuddi mixlangandek ustozi ta'limini aniq bajarardi.

Ot ancha o'jarlik qildi, charchadi, taqdirda tan berdi va jimgina qizning ixtiyoriga o'tdi.

Buni shundoqqina yaqindan kuzatib turgan Orifjon: «Qizim yiqilib tushmasa edi», deya qora terga botdi.

Buni sezgan Nodiraning ustozi Aleksey Nikolayevich Orifjonning yelkasiga qo'lini qo'yib: «Xavotir olmang, undan yaxshi chavandoz chiqadi, yaxshi kunlar hali oldinda, men unga ishonaman», deb tasalli bergen bo'ldi.

Musobaqa boshlandi. Otlar maydonda chiroyli yurib, to'siqlardan sakrab o'ta boshladi. Tomoshabinlar inglizcha ohangda cho'zib «Uzba-akista-a-an» deb baqirishdi. Navbat Nodiraga kelganda, olomon jonlandi, qichqiriqlar shunchalik kuchaydiki, xuddi «Paxtakor» gol urgandek bo'ldi. Nodiraga chavandoz kiyimi yarashgan, oti ham, o'zi ham nihoyatda chiroyli edi.

U otni ustalik bilan boshqarar, tulpor esa egasining buyrug'ini so'zsiz bajarlar, ilgarigi o'jarlikdan asar ham qolmagandi. Buni ko'rgan Orifjon qizini birinchi marotaba ko'rayotgandek angrayib qoldi va ko'zim tegmasin, deb o'zidan cho'chib, nigohini undan olib qochdi, unga omad tiladi.

Musobaqa nihoyatda katta bosim ostida hakamlar tortishuvida o'tdi va g'oliblар aniqlandi.

Nodira g'olibdan birozgina farq bilan ikkinchi o'rinni egalladi. 21 ishtirokchi orasida bu katta yutuq edi. Chunki birinchi, ikkinchi o'rinni olgan ishtirokchilarga jahon Olimpiadasiga yo'llanma berilardi.

Diktora radioda Nodiraning yutug'ini e'lon qilganda, bo'ron oldidagi sokinlik buzildi. Tomoshabinlar xursand bo'lishganidan hammalar o'rinalidan turib ketishdi, ular bir-birini quchoqlashar, olqishlashar, g'alaba bilan qutlashar, «Nodira, Nodira!», hatto «To'maris» deb qichqirishardi.

Ular Orifjonga ahamiyat berishmas, qizning g'alabasiga yetti yet begona insonlarning shunchalik kayfiyatlar ko'tarilganidan mammun va sarmast edi.

Musobaqa tugadi. Tomoshabinlar ko'p, chiqish qiyin, Orifjon pastga tushib, Nodirani tabriklab o'pmoqchi bo'ldi. «Yo'q, men tezroq uyga, Mamlakatning oldiga boray, shunday farzandni tug'ib bergen, tarbiyalagan insonga rahmat aytay», deb o'zini bosdi.

Birgalikda o'qiyimiz

O'zingiz fikrlab ko'ring: *bolasiz, biror joyingiz tirlalsa, lat yesa, chidaysiz, o'tib ketadi, deb o'zingizga taskin berasiz. Ammo birov g'ururingizni yerga ursa, sha'ningizga biror nojo'ya gap aysa, g'azab otiga minib, o'zingizni tutolmay qolasiz.*

NOMUS

Bir yer bor edi. G'anime qo'shnisi uning ho'kizlarini o'g'irlab sotdi. Yerdor qo'shni bilan yomon bo'imaslik uchun o'zini bilmaganlikka oldi. Hosil yetilgan payti kechasi payt poylab, g'allaning yarmini tashib ketdi. Yerdor yana sabr qildi. G'anime qo'shni qishda yerdorning bir sotix yerini qo'shib oldi. «Ko'zi to'ysin», deb yerdor yana bag'rikenglik qildi. Yozda suv talash bo'lib, g'anime qo'shni yerdorga suv o'tkazmay qo'ydi.

— Qo'shni, bu yaxshi emas! — deb yerdor uni insofga chaqirdi. G'anime qo'shni osmondan kelib:

— Qachondan buyon aql o'rgatadigan bo'lib qolding! landavur! — deya uni haqorat qildi.

Nomusi yerga urilgan yerdor jovidiradi, titradi va:

— Gunohing o'z bo'yiningda! — dedi va uyiga jo'nab ketdi. Buni birov tushundi, birov tushunmadni.

Oradan bir yil o'tdi. G'anime qo'shnining g'allasiga o't tushib, hosil batamom kuyib bitdi.

— Kimga yomonlik qilgan eding?! — jig'ibiyron bo'ldi oqsoqollardan biri: — Yaxshi qo'shnining nomusini yerga urgan eding, mana oqibati! — dedi.

Qissadan hissa:

Begunoh odamga yomonlik qilish juda qimmatga tushishi mumkin.

ULUG'LAR
NOMUS HAQIDA:

Nomus — asl go'zallik shu.

Romen ROLLAK,
fransuz yozuvchisi

Nomus jordan ham qimmat.

Iogap Fridrix SHILLER,
nemis shoiri


Chinakam nomus egrilikka toqat qilolmaydi.

Genri FILDING,
ingliz yozuvchisi

Nomusni yoshlikdan ehtiyyot qil.

Xalq maqoli
SHAHNOZA tayyorladi

FAXRLANGAN DILLAR YOG'DUSI



Sportsevar bolajonlar, yaqinda Italiyaning Milan shahrida o'tgan Jalon championatida boks bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolari bitta oltin, bitta kumush hamda ikkita bronza medalini qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida faxrli uchinchi o'rinni egallaganidan xabaringiz bor.

Yaqinda bokschilarimizga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovg'asi – «Neksiya» va «Matiz» avtomobilari topshirildi.



Yoshlar o'tasida jahon championi, «Mehnat shuhrati» ordeni solibi, Osiyo o'yinlari va bir qator nufuzli musobaqalar g'olib Elshod Rasulov championatning kumush medalini qo'lga kiritdi.

HAVAS QILGANDIM

Men 13 yoshimda Olimpiada championi Muhammadqodir Abdullayevga chin dildan havas qilgandim. O'shanda Prezidentimiz mashhur bokschimizga faxr bilan sovg'a topshirganlarida: «Men ham bir kun shunday yutuqlarga erishaman», deya orzu qilgandim. Ming bor shukr, Milandagi yutug'im shu niyatlarimni ro'yobga chiqardi. Bu g'ala meni Vatan qadrini baland tutishga, faxrlanishga o'rgatdi. Yurtboshimizning g'amxo'rliqi, e'tibordan Vatanimiz sharafini yuksaltirish mas'uliyati yanada oshdi. Navbatdagi jahon va qit'a championatlarida, xususan, 2012-yili Londonda o'tadigan XXX yozgi Olimpiada o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritmoqchiman.

Jasurbekni mahallada ham, maktabda ham, boksci bola, deb bilishadi. Aslida ham shundayda, jahon championi bo'lishni dilinga tugib, astoydil mashq qilyapti. Ayniqsa, kuni kecha oynayi jahon orqali boksci akalarining yurtboshimiz sovg'asi bilan munosib taqdirlanganliklaridan so'ng, uning orzulari yanada yuksaldi.

BUVIJONIM NIYATI

Men Italiyaning Milan shahriga, boks bo'yicha XV jahon championatiga jo'nab ketayotgan bokchilarimizga chin dildan omad tilagandim. Maktabdan keliboq, bobom bilan radio tingladik. Eng so'nggi xabarlarda shunday gaplarni eshitib qoldim.

«O'zbekistonlik charm qo'lqop» ustalarimiz hech kimdan kam emasliklarini yana bir karra amalda isbot etdilar.


– Bobojon, eshitdingizmi, bokschilarimiz 133 ta davlatdan kelgan 554 nafar kuchli bokscilar orasida eng kuchlisi bo'lishibdi. Demak, men ham kuchli boksci bola bo'la olaman-a? – dedim xastalikdan zo'r-bazo'r yuradigan bobojonimni quchoqlab.

– Buvijon, buvijon, – deyman uy ichidan buvijonimni axtarib. Chunki ular meni boks maktabiga yetaklab olib borganlarida, katta sportchi bo'lishimni niyat qilgandilar.

– Ha, bolajonim, men bu yerdaman, – dedilar buvim oshxonadan menga peshvoz chiqib.

– Sen akalarindan ham zo'r boksci bo'lsan. Men bunga ishonaman, – deganlarida, o'zim ham bu niyatga qo'shildim.


JASUR, 12 yosh, boksci



Yurtimizga olin medalni tufha qilgan Abbos Atoev ikkinchi bor Jalon championi degan nomga sazovor bo'lganini ham bilasis. Uning Milandagi sof g'alabasi yurtdoshlarimiz galbini faxrga to'ldirdi.



Bolalar, siz Bahodir akangizni ham yaxshi taniysiz-a? Bahodir Sultonov O'zbekiston terma jamoasining tajribali a'zosi, jahon championatining bronza medali sovrindori, «Do'stlik» medali nishondori.



Yana bir bokschimiz Botir Mahmudovdir. Botir akangiz Italiyadagi jahon championatida qatashgan terma jamoamizning eng yosh ishtirokchisi bo'ldi. U championatning bronza medalini qo'lga kiritdi. «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi» unvoni bilan taqdirlandi.


MASHG'ULOTLAR
ERTANGI G'ALABADIR

Faxriy unvonga meni ham loyiq topishganidan xursandman. Bolaligimda Andijon boks maktabida o'qib yurgan paytalarimdayoq, Muhammadqodir Abdullayev va O'tkirbek Haydarov kabi bokschilarga havas qillardim. Orzularim ro'yobga chiqdi. Men ayni paytda Andijon Davlat universitetida tahsil olmoqdaman. Osiyo championati va jahon championatlarida ishtirok etib, yutuqlarim soni ortib borayotganidan mammunman. Bunday yutuqlar zamirida tinimsiz mashqlar yotishini yaxshi bilaman. Chunki natijalar salmog'i faqat mashg'ulotlarda ko'rindi.

TAHRIRIYATDAN

Aziz bolajonlar! Boksci akalarigizning yuqoridagi hikoyalardan bolalikdagisi niyatlarini ijobat bo'lganiga guvoh bo'ldingiz-a? Ularga havas qildingizmi? Unda siz ham niyatni kattaroq qiling. O'zingiz sevgan sport turi bilan mutazam shug'ullaning. Jalon arenalarida kuchlilar qatoridan o'rinn olasiz. Faqat bo'sh vaqtinigizni behuda sarflamang, sport bilan do'st bo'ling. Maydonlarda toblansangiz, mashg'ulotlar siz uchun omadlar eshigini ochadi. Siz bunga faqat ishonsangiz bo'lgani.

Sahifani G'OLIBA tayyorladi



Shirinso'zlik va muloyimlik har qanday balomi qaytarishga qodir.


Barxurdor ibn Mahmud

MAKTABDAN MAKUB

Hurmatli Manzuraxon opa! Sahifangizga maktub yozishni anchadan buyon o'ylab yurgandim. Sizdan iltimos, menga to'g'ri maslahat bersangiz. Ikki yildan buyon bir sinfdoshimni yoqtirib yuraman. U esa menga qiyo ham boqmaydi. Nuqlu yonimdag'i qizga qaragan-qaragan. Dugonamning ismi Shahlo. O'zi unchalik chiroyli ham emas. Uning mendan nimasi ortiq ekan, tushunolmayman.

Sinfdoshimga yaxshi ko'rshimni qanday aytsam ekan, maslahat bering.

YULDUZ



Tog'ning ko'rkni tosh bilan,
Odam ko'rkni odobi bilan.

HOVLI OQSHOMDA



Oy qizlarim, sizlarni tahririyatimizga Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi maktab direktori o'rinnbosari Abdusattor G'ofurov dan kelgan maktub bilan tanishtirmoqchiman:


— Nafisa juda chaqqon qiz. Darslarini tayyorlashga ham, keksa buvisi Anor xolaga yumushlarida ko'maklashishga ham vaqt topadi. Dugonalari unga havas qilishadi. Buvisi ham, chaqqon qizim, dastyor qizim, deb maqtagini-maqtagan.

Lekin kuni kecha oqshom payti buvisidan eshitgan tanbehi sira yodidan chiqmaydigan bo'ldi. Shanba kuni bo'lgani uchun yakshanbada kechroq tursam ham bo'ladi, yaxshisi, hovlimni bugun supurib qo'yaqlay, deb chiroqlarni yoqib ishga


QIZLAR AKADEMiyASI

Men ko'rdim qiziq olma,
Oq emas, qizil olma.
Daraxtda pishmas, birog
O'zi olmadan yumshoq.

TOPISH MOQLAR?



Ko'k begasam to'nim bor,
Ichim baxmal lolazor,
Mazam shirin, go'yo qand,
Meni yegan tortmas dard.



Qavat-qavatdir to'ni,
Fe'li yomon dir uni.
Yechsang agar to'nini,
Yig'latadi, bil-shuni!

Hurmatli «Tong yulduzi» gazetasining jonkuyar xodimlari! Sizlarga bir dungan haqida maktub yozayapman. Uning ismi Malika, mashhur «Tantana» guruhining faol ishtirokchisi. Chilonzor tumani «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining sardori, «O'zbekiston» telekanali orqali berilayotgan «Bolalar

DUGONAM BILAN FAXRLANAMAN

dunyosi» ko'rsatuvining boshlovchisi hamda rejissyor yordamchisi bo'lib faoliyat yuritadi. Dugonam she'riyat olamining shaydosi, ijod namunalari gazeta va jurnallarda muntazam e'lon qilinadi. Ko'plab tadbir va musobaqalarda yuqori o'rinnlarni qo'liga kiritgan.

— Biz yoshlarga berilayotgan imkoniyat-

larning cheki yo'q. Undan unumli va oqilona foydalanish bizning burchimizdir, — deydi Malikaxon.

— Shunday intiluvchan tengdoshlarim bor ekan, yurtboshimiz ishonchini albatta oqlaymiz, — deyman Malikadek dugonam borligidan faxrlanib.

**Qamara JAYLOVOVA,
Uchtepa tumani**

TAHRIRIYATDAN:
Yulduzxon qizim, qiz bola doim sirli bo'lishi kerak. Menimcha, qizlarni, avvalo, yigitlar yaxshi ko'rsin. O'shanda ular sizni e'zozlashadi, hurmat qilishadi. Agarda yigitga yoqtirishingni aytsang, bir kun kelib, albatta yuzingga soladi. Shuning uchun yaxshi ko'rishingni sir tutganing ma'qul. Hali sen maktab yoshida ekansan. Chin muhabbat esa hali yuragingga albatta mehmon bo'ladi. Og'ir-vazmin, aqli, hayoli, iboli qizlarni yigitlar qattiq hurmat qilishadi.


kirishib ketdi. Bu holni ko'rgan buvijonisi:

— Hay-hay, bolam, Nafisaoy, hovlini hech qachon kechqurun supura ko'rma, — deb qo'lidan supurgini olib qo'ydi.

— Nega, buvijon, kechqurun supursa nima bo'ladi? — deya ajablanib so'radi Nafisa.

— Birinchidan, uyimizdan qut-baraka ko'tariladi, ikkinchidan, qilgan ishing chala bo'ladi yoki uyd'a janjal bo'lishi ham mumkin, endi bunday qila ko'rma, xo'pmi, bolam. Hovli-ko'chani albatta tongda, barvaqtroq supurish kerak, bolajonim. Yer shunday der ekan: — Mening yuzimni g'ubor-changdan tozalading, sening yuzing hamisha yorug' bo'lsin.

Nafisa munchoqdek ko'zlarini yerga qadab: — Buvijon, uzr, bilmabman, — dedi sekingina.



— G'afur G'ulom bog'ida bo'lgan bayramda mazza qildik-a, — dedi Hidayat singlisi Hilolaga.

M. UBAYDULLAYEVA tayyorladi



**BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOv**

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPOV
Navbatchilar:
Feruza SOYIBJON qizi,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinnbosari),
Feruza ADILOVA
(Mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 700129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 26471
Buyurtma N: J 8226

Muassislar:
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumat
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.